

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.I.Madaliyev	
Talabalarda vatanparvarlikni artpedagogika vositasida rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari.....	312
K.R.Sadikov	
Mumtoz asarlardagi arxaik so'zlarning lingvistik ahamiyati	316
G.H.Axmedova	
Ingliz adabiyotida Jorj Eliotning ijodi va tanqidiy realizm	318
R.D.Mustayev	
Temuriylar davri mutafakkirlari ijtimoiy-axloqiy qarashlarini tadqiq etishning nazariy jihatlarini	322
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va didaktik asoslari.....	326
B.Q.Nomonov	
Matbaa va qadoqlash sohasi terminlarining tarjima qilish muammolari.....	330
Sh.S.Tilavova	
Turkiston jadidlarining xotin-qizlar ta'limi haqidagi qarashlari.....	333



UO‘K: 378.014.15

IJTIMOY KOMPETENTLIK TUSHUNCHASINING MAZMUN-MOHİYATI VA DIDAKTIK ASOSLARI**СУЩНОСТЬ И ДИДАКТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОНЯТИЯ СОЦИАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ****THE ESSENCE AND DIDACTIC FOUNDATIONS OF THE CONCEPT OF SOCIAL COMPETENCE****Tursunova Dilnavoz To‘lqin qizi** 

Farg‘ona davlat universiteti maktabgacha ta‘lim kafedrası o‘qituvchisi

Annotatsiya

Maqolada pedagogik fanlarni integrativ o‘qitish asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning nazariy asoslari, pedagogik fanlarni integrativ o‘qitish asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirishning metodik tizimi, pedagogik fanlarni integrativ o‘qitish asosida talabalarning ijtimoiy kompetentligini rivojlantirish samaradorligi o‘rganilgan. Shuningdek, ijtimoiy kompetentlik tushunchasining mazmun-mohiyati va didaktik asoslari tahlil qilingan.

Аннотация

Теоретические основы развития социальной компетентности студентов на основе интегративного преподавания педагогических наук, методическая система развития социальной компетентности студентов на основе интегративного обучения педагогическим наукам, эффективность развития социальной компетентности студентов на основе интегративного обучения педагогическим наукам. В статье изучаются основы интегративного преподавания педагогических наук. Также были проанализированы содержание и дидактические основы понятия социальной компетентности.

Abstract

The theoretical basis of the development of social competence of students based on the integrative teaching of pedagogical sciences, the methodical system of developing the social competence of students based on the integrative teaching of pedagogical sciences, the effectiveness of the development of social competence of students on the basis of the integrative teaching of pedagogical sciences are studied in the article. Also, the content and didactic foundations of the concept of social competence were analyzed.

Kalit so‘zlar: integrativ, integrativ o‘qitish, texnologiya, ijtimoiy kompetentlik, takomillashtirish, pedagogik, texnologik, model, monitoring, didaktik, loyihalash, ekspert baholash, pedagogik eksperiment.

Ключевые слова: интегративное, интегративное обучение, технология, социальная компетентность, совершенствование, педагогический, технологический, модель, мониторинг, дидактика, проектирование, экспертная оценка, педагогический эксперимент.

Key words: integrative, integrative teaching, technology, social competence, improvement, pedagogical, technological, model, monitoring, didactic, design, expert evaluation, pedagogical experiment.

KIRISH

Bugungi kunda pedagogik kadrlarni tayyorlash tizimini takomillashtirish va kasbiy kompetensiyani rivojlantirishning asosiy shartlaridan biri ularda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishdir. Ijtimoiy kompetensiyaga ega pedagogik kadrlar avlodini shakllantirish zamonaviy jamiyat ta‘lim tizimining asosiy vazifalaridan sanaladi. Shu ma‘noda, bo‘ljak pedagoglarda ijtimoiy bilim va ko‘nikmalarni rivojlantirishning asosiy mexanizmi sifatida o‘quv jarayoni va uni talaba shaxsiga yo‘naltirish nazarda tutiladi. Buning uchun esa, bo‘ljak pedagoglarni tayyorlashga kompetensiyaviy yondashuvni izchil va tizimli olib yeurish bilan birga kompetensiyalarni integral, uyg‘unlikda rivojlantirish ham dolzarblik kasb etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ijtimoiy-gumanitar, pedagogik va psixologik fanlarni integrativ o‘qitish asosida talabalarning ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy, ijtimoiy-siyosiy va umummadaniy bilim va ko‘nikmalarini, tayanch

ILMIY AXBOROT

kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish masalalari yuzasidan G.Myurrey, X.Xekxauzen, S.S.Sagaydik, A.Amito, A.Yulanda, K.Franko, L.Briman, R.Konnella, P.Burdye, Dj.Skott, V.Spayk Peterson, N.Najib, E.Xelen, A.Kitchen, D.Ruts, S.Rubinshteyn, B.Ananyev, D.Uznadze, V.A.Petrovskiy, V.A.Petrovskiy, L.I.Bojovich, L.F. Alekseyeva, G.V.Verjibyuk, L.M.Semenyuk, T.A.Terexova A.G.Asmolov, A.N.Leontyev, O.V.Tixomirov, V.G.Pervutinskiy, M.I.Lukyanova, O.V.Mitina, Q.Turg'unov, M.Raxmonova, X.Tojiboyeva, T.Egamberdiyeva, N.O'rinova, T.Narbayera, S.Abdullayev, B.Adizov, D.Ro'ziyeva, D.Sharipova, M.Quronov, M.Maxmudova, N.A.Muslimov, N.Ortiqov, N.Egamberdiyeva, O.Jamoldinova, O.Musurmonova, U.Mahkamov, X.I.Ibragimov, Sh.Mardonov, Sh.Sharipov, Sh.Shodmonovalar tomonidan ilmiy izlanishlar amalga oshirilgan.

NATIJARLAR VA MUHOKAMA

Zamonaviy ilmiy adabiyotlarda va rivojlangan davlatlar qonunchiligida ta'lim natijalari nafaqat bilim, ko'nikma va malakalar orqali, balki bo'lajak kadrlarning ta'lim jarayonida egallagan kompetensiyalari orqali aniqlanishi ta'kidlanadi.

Kompetensiya - bu oliy kasbiy ta'lim mazmuni uchun ayniqsa muhim bo'lgan, o'quv jarayonining rejalashtirilgan maqsadi, u mutaxassis uchun kasbiy faoliyat talablari va uning malakasi asosida shakllanadi.

"Kompetensiya lotincha so'z bo'lib, erishaman, to'g'ri kelaman degan ma'nolarni bildiradi". Kompetensiya – subyektning maqsadni qo'yish va unga erishish uchun tashqi va ichki imkoniyatlarni samarali birga tashkil qila olishga tayyorgarligi, subyektning muayyan kasbiy masalalarni yecha olishga shaxsiy qobiliyatidir.

Kompetensiya inglizcha "somretense" tushunchasining lug'aviy ma'nosi "qobiliyat" demakdir, biroq "kompetensiya atamasi bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatini ifoda etishga xizmat qiladi". Shu ma'noda, kompetensiya bilim, ko'nikma, mahorat va qobiliyatlarni kashf etish, shakllantirish va rivojlantirish jarayonining xosilasi hisobalandi.

Rus olimlari tomonidan olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, xususan V.Serikov fikricha, "kompetensiyani shaxsiy o'zini o'zi anglashga hissaqo'shadigan bilim, ko'nikma, ta'limning mavjudligi" sifatida belgilaydi va "kompetentlikni esa hayot davomida mohirona bajarilgan harakat" hisoblanadi. Boshqa bir olim V.I.Baydenko fikricha, kompetensiya deganda "harakatlarning maqsadi va yashash sharoitini e'tiborga olgan holda aniq vaziyatda dolzarb bo'lgan barcha resurslarni harakatlantirishga (mobilizatsiyalashga) qobiliyatlilik yoki tayyorlik" tushunilishini ta'kidlaydi. Yana bir olim E.F.Zeyerning ta'rifiga ko'ra, kompetensiya deganda, "faoliyatning adekvat meyoriga aylanadigan, bilim, ko'nikma, malaka va faoliyat qobiliyatlari va qadriyatli motivatsion komponentlarini o'z ichiga olgan interaktiv konstruksiyalar" tushuniladi. Pedagog olimlardan S.YE.Shishov va I.G.Agapov fikricha, kompetensiya shaxsning o'quv jarayonida olingan bilim va tajribaga asoslangan qobiliyatlarini, shuningdek, uning harakatga tayyorligini anglatadi.

Kompetensiyalar shaxsning mustaqilligiga, o'quv va amaliy faoliyatda qo'zlangan muvaffaqiyatiga yo'naltirilgan bo'ladi.

Bunday yondashuvni ilgari surgan olimlardan biri V.D.Shadrikov bo'lib, uning so'zlariga ko'ra, kompetensiyalar shaxsning biror kasbiy tayyorgarlik jarayonida shakllanadi va yuzaga kelgan funktsional vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishga imkon yaratadigan bilim, ko'nikma, qobiliyat va shaxsiy xususiyatlarining tizimli namoyon bo'lishini nazarda tutadigan faoliyat subyektining yangi bir turi hisoblanadi.

O'zbekistonda ham kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni zamonaviylashtirish, integrativ kompetensiyalarni rivojlantirish masalalarini tadqiq etgan bir qancha olimlarni tilga olish mumkin. Masalan, B.X.Xodjayev "kompetensiya" tushunchasiga berilgan aksariyat ta'riflar kasbiy ta'lim, kasbiy faoliyat bilan bog'liqligini bayon etib, ushbu tushunchani umumiy o'rta ta'lim bilan bog'lagan holda ta'rif beradi. U kompetensiyani "ma'lum bir sohada samarali produktiv faoliyat uchun zarur bo'lgan, o'quvchining avvaldan belgilangan ta'limiy tayyorgarligiga qo'yiladigan ijtimoiy talablar (meyorlar)dan ham o'zib ketishidir" deb ta'kidlaydi.

Bugungi kunda ta'lim jarayonida faol foydalanilib, ijobiy natija berayotgan kompetensiya tushunchasini imkon qadar tahlil qilib va umumlashtirgan holda ushbu tushunchani oliy ta'lim talabasi shaxsiga qarata quyidagicha izohlash mumkin: "Kompetensiya" – bu talabaning ma'lum

yo'nalishda bilimlarni o'rganish va egallagan bilim, ko'nikma vaqobiliyatlarini tizimlashtira olish, amaliy faoliyatida samarali, muvaffaqiyatga yetaklovchi tarzda qo'llay bilishga yo'naltirilgan tayyorgarligidir.

Zamonaviy jamiyatda ro'y berayotgan ijtimoiy o'zgarishlar, ijtimoiy qadriyat sifatida inson shaxsiga e'tiborning kuchayishi ta'lim sohasi mutaxassislarini tayyorlashga nisbatan talablarni ham oshirmoqda, shuningdek, mutaxassislarning ijtimoiy bilim va malakalari hamda ijtimoiy ongining davlat ijtimoiy siyosatining strategik yo'nalishlariga mos kelishini taqozo qilmoqda. Ijtimoiy tajribaning kengayishi va murakkablashishi, ma'lumotlarni qayta ishlash va olishning yangi shakllarining paydo bo'lishi bilan bog'liq holda mutaxassisning kompetentligi tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda.

A.V.Mudrikning fikricha, "ijtimoiylashtirish" ("sotsializatsiya") atamasining muallifi amerikalik sotsiolog F.G.Giddings hisoblanadi. U 1887 yilda o'zining "Ijtimoiylashtirish nazariyasi" ("Teoriya sotsializatsii") kitobida bu atamani hozirgi zamonaviy ma'nosiga yaqin ma'noda ishlatgan: "individdning ijtimoiy tabiati va xarakterining rivojlanishi – insoniy materialni ijtimoiy hayotga tayyorlashdir".

"Ijtimoiy kompetentlik" tushunchasining ko'p o'lchovliligi, ijtimoiy-madaniy vaziyatning noaniqligi, uning ta'lim va tarbiya jarayonida sust qo'llanilishini E.F.Zeyer terminologik nuqtai nazardan "ziddiyatli voqeliklar" sifatida tavsiflaydi hamda ularni "inson subyektiv hayotining real hayot bilan, obyektiv voqelik bilan nomutanosibligi, qarama-qarshiligi" sifatida baholaydi.

Shaxsning ijtimoiy kompetentligi shaxsning yaxlit ijtimoiy sifati bo'lib, u ijtimoiy haqiqatni aniq qadrlashni, harakatga ko'rsatma sifatida aniq ijtimoiy bilimlarni, o'z taqdirini o'zi belgilash, o'zini o'zi boshqarish va qoidalar yaratish kabi subyektiv imkoniyatlarni o'z ichiga olgan, hayotning asosiy sohalariga (ijtimoiy institutlar, meyorlar va munosabatlar tizimida) tegishli madaniyat, axloq va qonun darajasiga muvofiq ravishda ijtimoiy texnologiyalarni amalga oshirish qobiliyatidir.

Siyosiy va ijtimoiy tanlov qobiliyati, krishuvchanlik va bag'rikenglik ta'limning kutilayotgan rivojlanishida shaxsning ijtimoiy kompetentligini taqozo qiladi. Subyektning qadriyatlari va bilimlari, qobiliyatlari va ko'nikmalari uning haqiqiy ijtimoiy mavqeiga muvofiqligini, uning madaniyati, axloq va qonun darajasiga mosligini taqozo qiladi. Ijtimoiy kompetentlikni yanadi to'liqroq aniqlash uchun uning tuzilishini ko'rib chiqish zarur. Biz buni quyida ko'rib chiqamiz.

Ijtimoiy kompetentlikning tuzilishi deganda uning asosiy tarkibiy qismlari va turli mazmun-mohiyat darajalari tushuniladi. Ijtimoiy kompetentlik quyidagi tarkibiy qismlardan iborat: aksiologik - asosiy hayotiy qadriyatlar iyerarxiyasi shaklida; gnoseologik - insonning o'zi bilan o'zi (o'z-o'zini tarbiyalash, o'zini rivojlantirish), o'zgaralar bilan ijtimoiy mohiyatli masalalarni hal qilishi bo'yicha ijtimoiy bilimlar; metodologik, kategorial, refleksiv (aks ettiruvchi) va loyihaviy fikrlashni nazarda tutadi; bunday tafakkur birlashmaning tizimli aloqalari bilan ishlaydi, bu subyektga ijtimoiy muammolarni prinsipial hal qilish, umumiy va o'zgaruvchan xususiy vaziyatlarga nisbatan umumiy yechimni turlicha o'zgartirish imkonini beradi; subyektiv - o'z taqdirini o'zi belgilash va o'zini o'zi boshqarish, tashabbuskorlik va qoidalar ishlab chiqarishga tayyorlik, ijtimoiy voqelikda mustaqil ravishda yangi sabablarni topish qobiliyati va qabul qilingan va bajarilgan ishlar uchun javobgarlik hissi; praktsiologik (texnologik) - ijtimoiy normalar va ijtimoiy munosabatlar tizimida gumanitar-ijtimoiy texnologiyalar hamda kommunikatsiyalarni amalga oshirish qobiliyati.

Ushbu komponentlar quyidagicha o'zaro bog'liqlikda namoyon bo'ladi:

qadriyatlar va bilimlar rahbarlik, tartibga soluvchi va boshqarish vazifasini bajaradi va to'g'ridan-to'g'ri muayyan harakatlarga yo'naltiriladi (subyekt qadriyatlar va bilimlarga muvofiq nima qilishni biladi); subyektiv fazilatlar ijtimoiy kompetentlikning shaxsiy asosini tashkil etadi; praktsiologik (amaliy-samarali) tarkibiy qism natijaviydir -subyektning ijtimoiy haqiqatga operativ-amaliy kiritish samaradorligi shunga bog'liq.

Ijtimoiy kompetentlik orzu-umid bilan emas, balki harakatlar bilan, qadriyatlar va bilimlarni iroda bilan o'zligini topishga va amaliy harakatlarga o'tkazish bilan bog'liq. Shuning uchun, ushbu kompetentlikda iroda alohida ahamiyatga ega, ya'ni subyektning qadriyatlar va bilimlariga muvofiq harakat qilishni o'zi belgilash qobiliyati.

Shaxsiy muloqot darajasida ijtimoiy kompetensiyaning ishonchli ta'rifi Z.A.Aksyutina tomonidan berilgan: "O'zgaralar bilan birgalikda harakat qilish istagi va ko'nikmasi, o'ziga va o'zaro muloqot qobiliyatiga bo'lgan ishonch, hamkorlik qilish va muloqot jarayonida yuzaga keladigan

ILMIY AXBOROT

muammolarni yengish qobiliyati” . Ko‘rib chiqilgan qarashlar, fikrlar asosida, biz ijtimoiy kompetentlikka bilim, malaka va fazilatlar tizimi sifatida qaraymiz hamda shaxs tomonidan jamiyatda o‘z funksiyalarini huquqiy, madaniy, kommunikativ, kasbiy, oilaviy darajada turli davlat tizimlari va tashkilotlari bilan birgalikda hal qilishini tushunamiz.

G.V.Yelizarova quyidagi ta‘rifni beradi: ijtimoiy kompetensiya “... ma‘lum bir jamiyatga xos bo‘lgan qadriyatlar, e‘tiqodlar, xulq-atvor namunalari, urf-odatlar, tili, madaniy yutuqlari to‘g‘risida bilimlar majmuasi”.

V.V.Safonovaning tushunchasida, ijtimoiy kompetensiya ta‘lim oluvchining o‘rganilayotgan xorijiy mamlakatlarning milliy va madaniy xususiyatlarini bilishi, ushbu bilimlarga muvofiq nutqiy xatti-harakatlarini amalga oshirish qobiliyati, shuningdek, xohishi va zamonaviy ko‘p madaniyatli dunyoda yashash va o‘zaro aloqada bo‘lish qobiliyatidir.

XULOSA

Shunday qilib, turli xil ilmiy yondashuvlarni tahlil qilish ijtimoiy kompetensiya kommunikativ qobiliyatning bir tomoni sifatida (I.E.Riske va b.), mos muloqotni olib borish qobiliyati sifatida (D.S.Melnikova), ijtimoiy bilimlar majmuasi sifatida qaralishi, xulq-atvor modellari, urf-odatlar va an‘analari to‘plami sifatida (P.V.Sisoyev) qaralishini aniqlashga imkon berdi. Ijtimoiy kompetensiyani bunday keng tushunchasi bo‘lajak pedagoglarda ijtimoiy kompetensiyani rivojlantirishda ushbu atamani belgilash va uning funksional va mazmunli asoslarini belgilashni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

8. Аксютинa, З. А. Концепция компетентностной подготовки к социальному воспитанию в вузе / З. А. Аксютинa // Сибирский педагогический журнал № 3. -Новосибирск, 2011.-С. 130.
9. Гидденс Э. Социология. М.: Эдиториал УРСС, 1999.
10. Елизарова, Г. В. О природе социокультурной компетенции [Текст] // Слово, предложение и текст как интерпретирующие системы. Studia Linguistica 8. – СПб.: Тригон, 1998. – С. 28.
11. Зеер, Э.Ф. Модернизация профессионального образования: компетентностный подход / Э.Ф. Зеер, А.М. Павлова, Э.Э. Сыманюк. -Москва: МПСИ, 2005. - 216 с
12. [Риске, И.Э. Формирование социокультурной компетенции у учащихся старшей ступени обучения на материале англоязычной поэзии \[Текст\]: дис... канд. пед. наук: 13.00.02. – С-Пб.: РГПУ, 2000. – 259 с., с. 119.](#)
13. Сафонова, В.В. Изучение языков международного общения в контексте диалога культур и цивилизаций [Текст] / В. В. Сафонова. – Воронеж: Истоки, 1996